

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahridinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriiddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурбаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullahovich	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n., dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
Muxtidinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



INVESTITSIYA MUHITI VA FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASH USLUBLARI

B. K. Tuxliyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Soliqlar va sug'urta ishi kafedrasи mudiri, i.f.d. professor



Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion muhit, O'zbekiston iqtisodiyotida jozibador investitsiya muhitini tashkil etish, investitsiya faoliyatini takomillashtirish, uning manbalarini shakllantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Amaliyotda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi tahlili keltirilgan. Hududiy investiya muhitini tashkil etishdagi omillar, muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion muhit, investitsiya loyihalari, hududiy investitsion, investitsiya muhitini baholash, investor, investitsion faoliyat, investitsiyalarni moliyalashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматривается инвестиционная среда, создание привлекательной инвестиционной среды в экономике Узбекистана, совершенствование инвестиционной деятельности, формирование ее источников, создание благоприятной инвестиционной среды, факторы, влияющие на инвестиционную среду в развитие народного хозяйства. Анализ объема инвестиций в основной капитал дан на практике. Анализируются факторы, проблемы и пути их решения в организации региональной инвестиционной среды.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная среда, инвестиционные проекты, региональное инвестирование, оценка инвестиционной среды. инвестор, инвестиционная деятельность, инвестиционноэ финансирование.

Abstract: This article examines the investment environment, the creation of an attractive investment environment in the economy of Uzbekistan, the improvement of investment activity, the formation of its sources, the creation of a favorable investment environment, the factors affecting the investment environment in the development of the national economy. The analysis of the volume of investments in fixed capital is given in practice. Factors, problems and their solutions in the organization of the regional investment environment are analyzed.

Key words: investment, investment environment, investment projects, regional investment, assessment of investment environment. investor, investment activity, investment financing.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya resurslarini joylashtirish va ulardan samarali foydalanish uchun investitsiya muhiti umumiylar mezon bo'ladi. Qulay investitsiya muhiti investitsiyalardan samarali, manzilli va maqsadli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Qulay investitsiya muhiti mamlakatga kapital olib kelishni rag'batalantiradi, investorlar faolligini oshiradi, aks holatlarda, qulay investitsiya muhiti shakllanmasdan investitsiya xavfi darajasi ortib boradi, kapitalning tashqariga chiqib ketishi kuchayadi va natijada investitsiya faoliyati so'na boshlaydi.

Jumladan, investitsiya muhiti mavhum tushuncha bo'lib, uning muayyanligini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy hamda boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillarning o'zarobog'liq majmuasi u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi investitsiya muhiti hisoblanadi. Bu haddan tashqari ko'p o'chovli, murakkab va hajmdor tushunchadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИI

Aksariyat iqtisodchilar «investitsion muhit» tushunchasini bir xil talqin qilsalarda, ammo uning muayyan turkumiylar tarkibiga kelganda va uni baholash uslublari haqida fikr yuritganda, ularning ta'rif va yondashishlari bir-birlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, «investitsiya muhiti» «investitsiya iqlimi» tushun-



chasingin sinonimi sifatida ham ishlataladi. Professor Sh.I.Mustafakulovning fikricha “Mamlakatning investitsiya jozibadorligini baholash bo'yicha aniq uslubiyat, biron bir xalqaro qonun bilan belgilanmagan, shu bois oxirgi vaqtarda investitsiya jozibadorligini baholovchi turli uslubiyatlar qo'llanmoqda. Ayrim iqtisodchilar fikricha, investitsiya jozibadorligi kapitalni qo'yishdan tushgan tushumning darajasi orqali aniqlanadi. Ushbu yondashuv qo'llashning juda tor sohasini qamrab oladi, chunki aniq va to'g'ri natijalarni olish uchun investitsiyalar risk (xatar) darajasi bir xil bo'lgan taqdirda amalga oshirilishi lozim, bu esa amalda deyarli mumkin emas”¹.

Investitsion muhitga baho berishda iqtisodiy sharoitlar, davlatning investitsion siyosati, investitsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy bazasi hisobga olinadi. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarни jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagい PF-5495-son «O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, Farmoni² qabul qilindi.


Investitsiya muhiti – u yoki bu voqelikda biznes yuritish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa tashkiliy shart-sharoitlar majmuini o'z ichiga oladi. Ya'ni, bizning tabirimizga ko'ra investitsiya muhiti - muayyan mamlakatga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mayjudligining ijobjiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi³. Investitsion muhitga baho berishda iqtisodiy sharoitlar, davlatning investitsion siyosati, investitsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy bazasi hisobga olinadi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2023-yil 11-iyulda “Investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar” yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida qo'yidagilar ta'kidlandi. “Yangi loyiham hisobidan qo'shimcha 3 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb qilish masalalari muhokama qilindi.

Bu borada eng katta imkoniyatlardan biri oliy darajadagi xorijiy tashriflar doirasida erishilgan kelishuvlar hisoblanadi⁴.

Investitsion muhitga baho berishda uchta asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin⁵.

Birinchi yondashuv – tor ma'no va tarkibga asoslangan bo'lib, u yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va milliy daromad dinamikalarini; milliy daromadni taqsimlash dinamikasini, jamg'arma va iste'mol nisbatini; investitsion faoliyatni qonuniy tartibga solish holatini; alohida olingan investitsion bozorlar, shuningdek, fond va pul bozori rivojini baholash orqali ifodalanadi.

Ikkinchi yondashuv – kengaytirilgan, ko'p omillik bo'lib, u investitsion muhitga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi ijobjiy omillarni e'tiborga olish va baholashga asoslangan (1-chizma).



1 - chizma: Investitsion muhitga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar tasnifi

1 Mustafakulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma / Sh.I.Mustafakulov. – Toshkent: Baktria press, 2017. – 320-b.

2 <https://lex.uz/docs/3845273>


3 Tuxliyev B.K. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimii takomillashtirish masalalari: Monografiya. -T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” -T, 2021. -54 b.

4 Xalq so'zi gazetasi, 2023-yil 12-iyul

5 Иошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: -М.:ЮНИТИ-ДАНА. 2001. С.116-118



1. Hududning mehnat va energetika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, bioqlimiy va ilmiy-teknikaviy salohiyati hamda infrastruktura majmua va subyektlarining rivojlanganligi.
 2. Bozor infrastrukturasing rivojlanganligi, xususiyashtirish jarayoni va inflyatsiya darajalarining investitsion faoliyka ta'siri, aholining investitsion jarayonga jalb qilinganlik darajasi, tadbirkorlik, raqobat muhitining qo'layligi, mahalliy bozor hajmi, xo'jaliklararo aloqalarning jadalligi, eksport imkoniyatlari, chet el kapitali mavjudligi.
 3. Xo'jalik yuritishning umumiy shart-sharoitlari – ekologik xavfsizlik, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligi va tugallanmagan qurilishlar hajmi.
- Yuqorida umumiy xarakterda keltirilgan omillar o'z navbatida qulay investitsion muhit yaratish nuqtai-nazaridan quyidagi siyosiy, ijtimoiy madaniy, moliyaviy va tashkiliy-huquqiy omillar doirasida e'tiborga olinishi lozim (2- chizma):



2 - chizma: Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarning tarkibiy turkumlari va ular tatbiq etiladigan asosiy yo'nalishlar

Ko'p omilli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- investitsion muhit va investitsion xavf darajasi kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi;
- investitsion muhitning asosiy kapital va iqtisodiyotning real sektoriga bo'lgan investitsiyalar bilan bog'liqligi;
- investitsion muhitning obyektiv xususiyatlari diqqat e'tibor;
- investitsion muhitning alohida olingan investorlar xohish irodasiga bog'liq emasligi,
- ushbu yondashuvning ko'p xususiyatga egaligi.



Uchinchini yondashuv - risk (xatar) tarafdarlari odatda investitsion muhitni tashkil etuvchilar sifatida ikkita asosiy mezoni ko'rsatadilar:

birinchisi, investitsion salohiyat va investitsion risk darajalarining holati bo'lsa,

ikkinchisi, investitsion risk va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat darajalarining o'zaro bog'liqligidir.

Dunyo mamlakatlarda investitsion muhitga baho berish uslublari bir-biridan farq qiladi va aksariyat hollarda makroiqtisodiy sohaga nisbatan baho beriladi. Masalan, Yaponiyada investitsion muhitning bayoniy tavfsi berilib, miqdoriy baho qo'llanilmaydi. AQShda esa bir-biriga bog'liq to'rtta ko'rsatkich, ya'ni ishbilarmonlik faolligi, xo'jalik yuritish tizimining rivojlanganlik darjasasi, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, soliq siyosating asosiy tashkil etuvchilar orqali aniqlanadi. AQShda reyting natijalari har yili «Yillik statistik karta»da e'l on qilinadi. «Euromoney» jurnali rivojlangan mamlakatlar yirik banklari vakillari bo'lgan ekspertlardan ma'lumot to'plash usulidan foydalanish bilan bir qatorda u yoki bu omilning holati haqida statistik axborotni ham hisobga oladi. Bu omillar qatorida quyidagilar mavjud, ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, mahsulotlar uchun to'lovnii amalga oshirmaslik riski, kreditlarni qaytarmaslik, dividendlarni to'lamaslik, qarz ko'rsatkichlari, mamlakatlarning kreditlarni qaytara olish imkoniyatlari.⁶

Investitsion muhitni baholashning roli va ahamiyatining nechog'lik muhimligini hisobga olgan holda, respublikamizda hududiy investitsion muhitning bir xil emasligini nazarda tutmog'imiz lozim. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni amalga oshirishda infrastrukturni yaratishga mahalliy hokimiyat katta e'tibor qaratmog'i lozim. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2023 yil 11 iyulda "Investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" yuzasidan bo'lib o'tgan video-selektor yig'ilishida qo'yidagilar ta'kidlandi. "Investitsiya dasturlaridagi 1,5 mingta loyihani tezlashtirish va 12,1 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha yangi tizim joriy qilinishi ta'kidlandi.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tadqiqotning dialektik usuli, tizimli va jarayonli yondashuvlar tashkil etadi. Ishda ilmiy abstraksiya, sintez, guruhlash va taqqoslash, moliyaviy tahlil kabi tadqiqot usullaridan hamda rasmiy axborot bazasidan foydalanilgan.

Yuqorida bayon qilingan investitsion muhitni baholash uslublarining asosliligi va amaliy ahamiyatiga baho berish uchun chet el tajribasini o'rganish, uning ilg'or va istiqbolli yutuqlarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsion muhitni baholashning xalqaro tajribasi shuni ko'rsatadiki, uning obyektivlik darajasini oshirish uchun zamонави iqtisodiyot fani tomonidan ishlab chiqilgan bir qator muhim uslubiy qoidalarni hisobga olish zarur. Jumladan:

1. Barcha turdag'i investitsiyalar uchun ma'lum investitsion muhit zarur. Amalda kapital (sanoat, savdo, qarz, aksiyadorlik) investitsiya kabi turlicha bo'ladi, investorlar esa o'zaro mos kelmaydigan maqsadlar ni ko'zlaydilar. Masalan, qarz kapitali qisqa vaqt ichida maksimum foya olishga qaratilgan bo'lib, moliyaviy investitsiyalar orqali harakat qilsa, sanoat kapitali esa uzoq muddat davomida korxona faoliyatiga barqaror ta'sir o'tkazishga intilib, real va bevosita investitsiyalar orqali harakat qiladi.
2. Investitsion muhit manfaatlari muvozanatiga asoslangan bo'lishi kerak, chunki investitsiyalarni qabul qiluvchi ham, investitsiyalarni yetkazib beruvchi ham turlicha maqsadlarni ko'zlaydi, ya'ni ularning birinchisi minimum mablag'lar asosida maksimum maqsadlarni ko'zlasa, ikkinchisi – maksimum foya olish va mahalliy bozorlarni mumkin qadar tezroq egallahsha intiladi.
3. Investitsion muhit, bir tomondan, uzoq vaqt davomida barqaror bo'lishi lozim, ikkinchi tomondan, yetarli darajada uddaburon tadbirkor mamlakatda shakllanayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish omillariga (ilmiy-texnikaviy, tadbirkorlik, boshqaruv, texnologik) nisbatan yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olabildigan bo'lishi darkor.
4. Investitsiyalar inson kapitali rivoji, barcha faoliyat sohalaridagi ishchi va xizmatchilarining malakasi yuksalishi bilan aniq bog'langan bo'lishi lozim.
5. Investitsion muhit xo'jalikning iqtisodiy barqarorligi va ishlab chiqarish tizimlari xavfsizligini ta'minlashi kerak.
6. Investorlar va investitsiyalarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim manfaatlарining muvozanati va o'zaro mos kelishini ta'minlash maqsadida, jalb qilinayotgan investitsiyalarning samarali ekanligini va investitsion

⁶ Гуськова Н.Д. Теория и практика инвестиционной деятельности в условиях транзитивной экономики: Федеральный и региональный аспекты. Специальность 08.00.05 Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Саранск 2000. С.103

⁷ Xalq so'zi gazetasi, 2023-yil 12-iyul



muhitning qulayligini kompleks baholash talab etiladi. Shu sababdan nafaqat jalg qilingan investitsiyalar hajmi, balki ulardan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa oqibatlarini hisobga olish lozim.

Yuqoridagi uslubiy qoidalar asosida investitsion muhitni baholash usullarining afzalliklari va kamchiliklariga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Jumladan, tor ma'no va tarkibga asoslangan yondashuv tarafdarlari investitsion jozibadorlikning asosiy ko'rsatkichi sifatida foydalanilayotgan aktivlarning foydalilik darajasini ikki variantda hisoblashni qabul qiladi:

- 1) tovarlar va xizmatlar realizatsiyasidan kelgan foydaning jalg qilingan aktivlarning umumiyligi summasiga nisbati;
- 2) balans foydaning foydalanilayotgan aktivlarning umumiyligi summasiga nisbati.

Ushbu uslubiy yondashuv sodda va hammabop bo'lib, tadbirkorlik fao-liyatining bosh maqsadi bo'lgan foya da va qo'yilmalar qaytimini hisobga oladi. Uni turli xo'jalik tizimlaridagi investitsion muhitni tadqiq qilish uchun qo'llash mumkin. Biroq, bu yondashuvda manfaatlarni muvozanati aks etmagan, investitsiyalar bilan resurs omillari o'rtaisdagi obyekti bog'liqlik inkor etiladi, qolaversa, investitsion muhit rivojlanishning innovatsion turi va iqtisodiy barqarorligi bilan bog'lanmagan.

Investitsion muhitni baholashning ko'p omilli usuli uslubiy talablarga ko'proq javob beradi. Uning afzallik tomonlari: resurs-omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olish; baho berishda subyektivizmni kamaytiradigan statistik ma'lumotlardan foydalanish; iqtisodning turli darajalariga alohida-alohida yondashuv; investitsiyalarning barcha mumkin bo'lgan manbalarini maksimal darajada samarali qo'llashni taminlashga intilish.

Risk darajasi bilan bog'liq baholash usuli esa eng avvalo strategik investor uchun qiziqish uyg'otadi. U nafaqat investitsiyalash uchun jozibadorlikni aniqlab qolmay, balki investitsiyalar qo'yiladigan yangi obyektgaga xos bo'lgan xavf darajasi bilan hozirda mavjud bo'lgan, investor uchun biznes yuritishda odatiy bo'lgan risk darajasini o'zaro qiyoslash imkonini ham beradi. Ushbu yondashuvda, shuningdek, investorning ham iqtisodiy, ham siyosiy manfaatlari hisobga olinadi.

Zamonaviy iqtisodiy tafakkurning yetakchi yo'nalishlaridan bo'lgan institutsionalizm investitsion muhit tahlili uchun yangi imkoniyatlarni ochib berganligini alohida e'tirof etish lozim. Shuni ta'kilash joizki, investitsion muhit iqtisodning institutsional tizimida alohida tizim osti qismi bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va ilmiy-tehnikaviy yangilanish jarayonida faol investitsion faoliyat orqali ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan eng unumli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifasini bajaradi. Mazkur tadqiqotlarimiz maqsadlariga oydinlik kiritish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yuksalishni taminlaydigan institutsional shart-sharoitlar tavsifini bilish muhim o'rinni tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalq so'zi gazetasi, 2023-yil 12-iyul.
2. Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: -М.:ЮНИТИ-ДАНА. 2001. С.116-118
3. <http://www.lex.uz> (normativ-huquqiy hujjatlar tizimi).
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2019-yil 25-dekabr. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati" to'g'risida.
5. Mustafakulov Sh. I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma / Sh.I.Mustafakulov. – Toshkent: Baktria press, 2017. – 320 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdaggi PF-5495-son «O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, Farmoni <https://lex.uz/docs/3845273>
7. Tuxliyev B. K. Investitsiyalar va ularni moliyalashtirish tizimi takomillashtirish masalalari: Monografiya. -Т.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi". -Т, 2021. -54-b.
8. Гуськова Н.Д. Теория и практика инвестиционной деятельности в условиях транзитивной экономики: Федеральный и региональный аспекты. Специальность 08.00.05 Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Саранск 2000. С.103
9. COVID-19 pandemiysi va global iqtisodiy inqirozga qarshi kurash: "Taraqqiyot strategiyasi" Markazi, www.strategy.uz
10. Davlat statistika qo'mitasi, <http://www.stat.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.